



## XORIJIY DAVLATLARNING JINOYAT PROTSESSIDA DALILLAR, ULARNI TO‘PLASH VA MUSTAHKAMLASH

**Rajabov Jonibek Samar o‘g‘li**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*Xalqaro huquq fakulteti 2-bosqich talabasi*

*Elektron pochta: rajabovjonibek718@gmail.com*

**Ilmiy rahbar: Soliyev Dilshod Baxtiyor o‘g‘li**

*JIDU xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari*

*kafedra katta o‘qituvchisi*

*Elektron pochta: dsoliyev9610@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola xorijiy davlatlar — Singapur, Yaponiya va Xitoy jinoyat protsessida dalillarni to‘plash, mustahkamlash va ularning yuridik kuchiga oid huquqiy tartibotlarni qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda har bir davlatning jinoyat protsessual qonunchiligi, dalil turlari, ularni to‘plash usullari, noqonuniy yo‘l bilan olingan dalillarni istisno qilish mexanizmlari va raqamli dalillarni tan olish holatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola mazkur davlatlar tajribasini O‘zbekiston milliy qonunchiligini takomillashtirish nuqtai nazaridan o‘rganadi va xulosalar hamda tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Dalil, jinoyat protsessi, dalil to‘plash, dalilni mustahkamlash, Singapur jinoyat protsessual huquqi, Yaponiya jinoyat protsessual huquqi, Xitoy jinoyat protsessual huquqi, raqamli dalil, noqonuniy dalil, admissibillik, sud isbotlash, qiyosiy huquq, xalqaro jinoyat protsessi.

Zamonaviy huquqiy tizimda jinoyat protsessida dalillarning to‘planishi va mustahkamlanishi adolatli sudlovni ta‘minlashning asosi hisoblanadi. Xorijiy davlatlarning jinoyat protsessual qonunchiligini o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, milliy huquq tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Singapur, Yaponiya va Xitoy uchta yirik Osiyo davlati sifatida har biri o‘ziga xos huquqiy an‘anaga ega bo‘lib, dalillarga oid protsessual tartibotlari jihatdan keskin farqlanadi.

Malumki, Singapur common law tizimiga asoslangan holda ingliz huquqiy an‘anasidan kuchli ta‘sirlangan bunga sabab sifatida inglizlarni mustamlakasi bo‘lganini aytishimiz mumkin. Yaponiya esa Ikkinchi Jahon Urushidan keyingi davrda kontinental va anglo-sakson huquqini mujassamlashtirgan o‘ziga xos aralash tizimni shakllantirgan. Xitoy esa sotsialistik huquq oilasiga mansub bo‘lib, 1979-yildan beri jinoyat protsessual kodeksini bir necha bor tubdan isloh qilgan. Ushbu maqolada uch davlatning dalillarga oid protsessual tartibotlari tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatiladi.

Singapur jinoyat protsessual huquqining asosiy manbalari bu 1893-yilda qabul qilingan va keyinchalik bir necha bor o‘zgartirilgan dalillar to‘g‘risidagi qonun (Evidence Act, Cap.

97) hamda Jinoyat Protsessual Kodeksi (Criminal Procedure Code, CPC)dir. Singapur huquq tizimi umumiy huquq (common law) tamoyillariga asoslanib, ingliz sud tizimi amaliyoti kuchli tasir o'tkazgan.

Singapur qonunchiligiga ko'ra, sud jarayonida faqat tegishli (relevant) va qonuniy yo'l bilan olingan dalillar qabul qilinadi. Dalillar to'g'risidagi ushbu qonun dalillarni og'zaki, hujjatli va moddiy deb ajratadi. Ekspert xulosalari ham muhim dalil turi sifatida tan olinib, 2012-yilgi bo'lgan o'zgartirish bilan ekspert dalillarini qabul qilish mezonlari kengaytirildi.<sup>1</sup>

Bundan tashqari, elektron dalillar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Dalillar to'g'risidagi qonunning 116A-moddasi elektron yozuvlarning haqiqiylikiga nisbatan prezumpsiya belgilaydi. Raqamli ma'lumotlar ya'ni matnli xabarlar va raqamli fayllar tegishli ravishda autentifikatsiya qilingan bo'lsa, dalil sifatida qabul qilinishi belgilangan.<sup>2</sup>

2024-yilgi Jinoyat protsessual qonuniga muvofiq, politsiyaga qamoqqa olingan shaxsni darhol tintuv o'tkazish vakolati berildi. Bu esa o'z navbatida xavfli buyumlarni olib qo'yish imkonini ta'minlaydi.<sup>3</sup> Bundan tashqari, politsiya jinoyatda gumon qilinuvchining egaligida bo'lishi mumkin bo'lgan dalillarni izlash maqsadida sud sanksiyasiz tintuv o'tkazishga ham haqli ekanligi belgilangan.<sup>4</sup>

Sudlov-tibbiy ekspertiza (forensic medical examination — FME) sohasida ham muhim islohot amalga oshirilganini e'tirof etish kerak. Forensic medical examination DNK namunalari olish yoki qon tahlili kabi sud-tibbiy dalillarni olishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Jinoyatchilikka qarshi kurashda FMEni samarali qo'llash uchun qonun doirasidagi mexanizm belgilandi.<sup>5</sup>

Singapurda jinoiy ishni ochish (criminal case disclosure — CCD) tizimi 2010-yildan beri ishlab keladi. 2024-yilgi islohot bilan ushbu tizim qonuniy asosga olindi va umumiy huquq normalariga ko'ra vujudga kelgan ochiq axborot qoidalari qonunchilikka kiritildi.<sup>6</sup> Himoya tomoni ham o'z dalillarini erta bosqichda oshkor qilishi shart bo'lib, bu sud jarayonini yanada samarali va adolatli qilishga xizmat qiladi.

Yaponiya jinoyat protsessual huquqining asosiy manbalari bu 1948-yil 10-iyulda qabul qilingan Jinoyat Protsessual Kodeksi (Keiji Sosho Ho) va 1949-yilgi Jinoyat Protsessual Qoidalaridir. Yaponiya jinoyat protsessual huquqi sharq, kontinental va anglo-sakson huquqini o'zida mujassamlashtirgan noyob tizim hisoblanishini e'tirof etish kerak.<sup>7</sup>

Yaponiya jinoyat protsessida uch turdagi dalil farqlanadi. Bular: guvohlar, hujjatli dalillar va moddiy dalillar. Sudda dalillarni tekshirish guvohlarni so'roq qilish yoki moddiy dalillarni namoyish etish shaklida amalga oshiriladi. Hujjatli dalillarni tekshirishda rais so'rov kiritgan tomonga hujjatni baland ovozda o'qib eshittirish to'g'risida ko'rsatma beradi.

Yaponiya Konstitutsiyasining 33-moddasi shaxsni faqat vakolatli sudya tomonidan berilgan buyruq asosida hibsga olish mumkinligini belgilaydi. Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, jinoyat boshlanganligi haqida yetarli asoslar mavjud bo'lgan va gumon qilinuvchi dalillarni yo'q qilishi yoki qochib ketishi xavfi bo'lgan taqdirda mustaqil sudya qamoqqa olish qarorini chiqaradi.<sup>8</sup> bundan tashqari, Politsiya Yaponiyada asosiy tergov organi hisoblanadi. Ayblov tomon sudda himoya tomon uchun zarur dalillarni jumladan,

prokurorlik ixtiyoridagi dalillar ro'yxatini va ayblanuvchi tomonidan ilgari surilgan dalillarga tegishli materiallarni ochib berishi shart.<sup>9</sup> Bu talabning bajarilishi adolatli sudlovni ta'minlashning kafolati sifatida qaraladi.

Yaponiya konstitutsiyaning 38-moddasi o'z-o'ini ayblashdan himoya qilish huquqini kafolatlaydi. Bu holat ko'p jihatdan prokuraturaning kuchli dalillarsiz ish qo'zg'atmasligini aks ettiradi.

Xitoy Xalq Respublikasining Jinoyat Protsessual Qonuni 1979-yilda qabul qilingan bo'lib, 1996, 2012 va 2018-yillarda katta islohot qilingan. 2018- yilgi tahrir bilan qonun 308 ta moddaga kengaytirildi va inson huquqlarini himoya qilish tamoyili ancha mustahkamlandi.

Xitoy jinoyat protsessual qonuniga ko'ra, dalillar quyidagi turlarga bo'linadi: moddiy dalillar, hujjatli dalillar, guvohlarning ko'rsatmalari, jabrlanuvchi bayonoti, jinoyatda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tushuntirishlari, ekspert xulosalari hamda tergov bayonnomasi.<sup>10</sup>

guvoh ko'rsatmasi ikki tomon ayblov va himoya tomonlarining sudda o'zaro qarama-qarshi tekshiruvi (cross-examination) orqali tekshirilgandan va tasdiqlangandan keyingina hukm asosi sifatida qabul qilinishi mumkin (Xitoy jinoyat protsessual qonuni, 61-modda).<sup>11</sup>

2012-yilgi islohot bilan qonunda noqonuniy dalillarni istisno qilish qoidasi ya'ni (exclusionary rule) mustahkamlandi. Mazkur qoidaga ko'ra, qiynoq, zo'ravonlik, tahdid yoki boshqa noqonuniy usullar bilan olingan dalillar va guvoh ko'rsatmalari dalil sifatida qabul qilinmaydi.<sup>12</sup> Moddiy yoki hujjatli dalillar noqonuniy yo'l bilan to'plangan va sud faoliyatiga jiddiy ziyon yetkazgan bo'lsa, ularni ham istisno qilish mumkinligi belgilabgan.

Xitoy jinoyat protsessual qonunining 60-moddasiga ko'ra, sud tekshiruvi davomida noqonuniy dalil to'planganligi tasdiqlansa yoki inkor etilmasa, dalil istisno qilinadi. Bu norma Xitoy jinoyat protsessual huquqidagi muhim qadam sifatida baholanadi.

Xitoy qonunchiligiga ko'ra, tergov deganda jamoat xavfsizligi organlari yoki xalq prokuraturasi jinoyat ishi bo'yicha olib boradigan faoliyat, jumladan dalillarni to'plash tushuniladi (jinoyat protsessual qonunning 108-moddasi)<sup>13</sup> Tintuvni faqat qonuniy ruxsatnoma asosida o'tkazish mumkin.

Himoyachi 43-moddaga muvofiq, jabrlanuvchi, guvohlar yoki boshqa shaxslardan ularning roziligi bilan dalil to'plashga haqli hisoblanadi. Himoyachi prokuror yoki suddan dalil to'plash va olishni so'rashi yoki suddan guvohni sudga chaqirishni talab qilishi ham mumkin.<sup>14</sup>

Ko'rib chiqilgan uch davlatning jinoyat protsessual tizimlarini qiyoslaydigan bo'lsak, quyidagi o'xshashlik va farqlarni kuzatish mumkin;

Birinchidan, uchala davlat ham noqonuniy usul bilan to'plangan dalillarni istisno qilish qoidasini joriy etgan. Singapurda bu common law tamoyillari va qonunchilik orqali tartibga solinsa, Yaponiyada Konstitutsiya kafolatlari, Xitoyda esa 2012-yildan boshlab qonun orqali belgilangan.

Ikkinchidan, raqamli dalillar masalasida Singapur eng rivojlangan qonunchilikka ega bo'lib, 2012-yilgi o'zgartirishlar bilan elektron dalillar admissibilligi aniq tartibga solingan.



Yaponiya ham raqamli dalillarni an'anaviy dalillar qoidalari doirasida ko'rib chiqadi, Xitoy esa 2018-yilgi islohot bilan bu sohadagi me'yorlarni kuchaytirgan.

Uchinchidan, himoya tomonining dalil to'plash huquqi jihatidan Singapur va Yaponiyada ayblov va himoya tomonlari o'rtasida ma'lumot almashinuv (disclosure) tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xitoyda esa himoyachining dalil yig'ish huquqi rasman tan olingan bo'lsa ham amalda cheklovlar mavjudligini ko'ramiz.

O'zbekiston jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish nuqtai nazaridan ushbu tajriba bir qancha yo'nalishlarda foydali bo'lishi mumkin. Raqamli dalillarni tan olish mexanizmi yaratish, noqonuniy dalillarni istisno qilish qoidasini yanada aniqlashtirish va himoya tomonining dalil to'plash imkoniyatlarini kengaytirish shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy davlatlar Singapur, Yaponiya va Xitoy jinoyat protsessida dalillarni to'plash va mustahkamlash sohasida har biri o'ziga xos huquqiy tajribaga ega. Singapur common law tizimida dalillar admissibilligi va elektron dalillarga alohida e'tibor qaratilgan. Yaponiya aralash tizimda dalillar to'plashni konstitutsiyaviy kafolatlar bilan chegaralash orqali shaxs huquqlarini himoya qiladi. Xitoy esa islohot jarayonida noqonuniy dalillarni istisno qilish, himoyachining vakolatlarini kengaytirish va inson huquqlarini himoya qilish tamoyillarini qonunchilikka joriy etib kelmoqda. Ushbu davlatlar tajribasini o'rganish O'zbekiston jinoyat protsessual huquqini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, ayniqsa raqamli dalillar, noqonuniy dalillar istisnosi va himoya tomonining huquqlari sohasida kerakli va zarur islohotlar o'tkazish uchun ilmiy asos bo'lishi mumkin.

---

### **Izohlar:**

<sup>1</sup> Singapore Evidence Act (Cap. 97), Sections 47-53; Expert evidence amendments 2012. [https://ink.library.smu.edu.sg/sol\\_research/4770/](https://ink.library.smu.edu.sg/sol_research/4770/)

<sup>2</sup> Singapore Evidence Act, Section 116A; PwC Singapore. Electronic Records and the Evidence Act. <https://pwc.com/sg/en/services/risk/compliance/evidence-act.html>

<sup>3</sup> Criminal Procedure (Miscellaneous Amendments) Act 2024 (No. 5 of 2024). <https://sso.agc.gov.sg/Acts-Supp/5-2024>

<sup>4</sup> Phase 2 Commencement of the Criminal Procedure (Miscellaneous Amendments) Act 2024. <https://www.mlaw.gov.sg/phase-2-commencement-of-the-criminal-procedure-miscellaneous-amendments-act-2024/>

<sup>5</sup> Criminal Procedure (Miscellaneous Amendments) Bill 2024 - FME Framework. <https://www.mha.gov.sg/mediaroom/press-releases/criminal-procedure-miscellaneous-amendments-bill-2024/>

<sup>6</sup> Second Reading Speech, Criminal Procedure (Miscellaneous Amendments) Bill 2024. <https://www.mlaw.gov.sg/news/press-releases/criminal-procedure-miscellaneous-amendments-bill-2024/>

<sup>7</sup> UNAFEI. Chapter 4: Pre-Trial Criminal Procedure in Japan. [https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/CJSJ\\_2011/06Chapter4.pdf](https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/CJSJ_2011/06Chapter4.pdf)



<sup>8</sup> Ministry of Justice of Japan. FAQ on the Japanese Criminal Justice System. <https://www.moj.go.jp/EN/hisho/kouhou/20200120enQandA.html>

<sup>9</sup> Code of Criminal Procedure of Japan (Act No. 131 of 1948). <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3739/en>

<sup>10</sup> Criminal Procedure Law of the PRC (2018), Article 50. [https://en.wikisource.org/wiki/Criminal\\_Procedure\\_Law\\_of\\_the\\_People's\\_Republic\\_of\\_China\\_\(2018\)](https://en.wikisource.org/wiki/Criminal_Procedure_Law_of_the_People's_Republic_of_China_(2018))

<sup>11</sup> Criminal Procedure Law of the PRC (2018), Article 61 . <https://www.chinalawtranslate.com/en/criminal-procedure-law-2018/>

<sup>12</sup> Library of Congress. China: Amendment of Criminal Procedure Law. April 9, 2012. <https://www.loc.gov/item/global-legal-monitor/2012-04-09/china-amendment-of-criminal-procedure-law/>


<sup>13</sup> NPCSC Decision on Revising the CPL, October 26, 2018, Article 108. [https://en.spp.gov.cn/2018-10/26/c\\_948429.htm](https://en.spp.gov.cn/2018-10/26/c_948429.htm)

<sup>14</sup> Criminal Procedure Law of the PRC (2018), Article 43. <https://www.chinalawtranslate.com/en/criminal-procedure-law-2018/>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-Protsessual Kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111460>
2. Singapore Evidence Act (Cap. 97). Attorney-General's Chambers of Singapore. <https://sso.agc.gov.sg/Act/EA1893>
3. Singapore Criminal Procedure Code (Cap. 68). <https://sso.agc.gov.sg>
4. Criminal Procedure (Miscellaneous Amendments) Act 2024 (No. 5 of 2024), Singapore. <https://sso.agc.gov.sg/Acts-Supp/5-2024>
5. Ministry of Law Singapore. Criminal Procedure (Miscellaneous Amendments) Bill 2024. Press Release. <https://www.mlaw.gov.sg/news/press-releases/criminal-procedure-miscellaneous-amendments-bill-2024/>
6. Ministry of Home Affairs Singapore. Second Reading Speech on the CPMA Bill 2024. <https://www.mha.gov.sg/mediaroom/speeches/second-reading-speech-by-second-minister-for-home-affairs-mr-josephine-teo-on-the-criminal-procedure-miscellaneous-amendments-bill-2024/>
7. Code of Criminal Procedure of Japan (Act No. 131, July 10, 1948; last amended Act No. 63 of 2019). Japanese Law Translation. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3739/en>
8. Supreme Court of Japan. Outline of Criminal Justice in Japan 2023. [https://www.courts.go.jp/english/vc-files/courts-en/Material/Outline\\_of\\_Criminal\\_Justice\\_in\\_JAPAN\\_2023.pdf](https://www.courts.go.jp/english/vc-files/courts-en/Material/Outline_of_Criminal_Justice_in_JAPAN_2023.pdf)



- 
9. Ministry of Justice of Japan. Frequently Asked Questions on the Japanese Criminal Justice System. <https://www.moj.go.jp/EN/hisho/kouhou/20200120enQandA.html>
10. UNAFEI. Chapter 4: Pre-Trial Criminal Procedure in Japan // Criminal Justice in Japan. — Tokyo, 2011. [https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/CJSJ\\_2011/06Chapter4.pdf](https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/CJSJ_2011/06Chapter4.pdf)
11. Library of Congress. China: Amendment of Criminal Procedure Law. Global Legal Monitor, April 9, 2012. <https://www.loc.gov/item/global-legal-monitor/2012-04-09/china-amendment-of-criminal-procedure-law/>

